

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

**JIZZAX VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA
O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

“ANIQ VA TABIIY FANLAR METODIKASI” KAFEDRASI

**“PEDAGOGIK TA’LIM, INNOVATSION G‘OYALAR VA
TEXNOLOGIYALARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI
YARATISH VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH”**

Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi

(2023-yil, 15-iyun)

MATERIALLARI

**“CREATING THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASE OF
PEDAGOGICAL EDUCATION, INNOVATIVE IDEAS AND
TECHNOLOGIES AND THEIR IMPLEMENTATION INTO PRACTICE”**

International scientific and practical online conference

(June 15, 2023 y)

MATERIALS

**«СОЗДАНИЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ БАЗЫ
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ, ИННОВАЦИОННЫХ ИДЕЙ И
ТЕХНОЛОГИЙ И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В ПРАКТИКУ»**

Международная научно-практическая онлайн-конференция

(июня 15, 2023 г)

МАТЕРИАЛЫ

JIZZAX – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**JIZZAX VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA
O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

“ANIQ VA TABIIY FANLAR METODIKASI” KAFEDRASI

**“PEDAGOGIK TA’LIM, INNOVATSION G‘OYALAR VA
TEXNOLOGIYALARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI YARATISH VA
UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH”**

Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi

(2023-yil, 15-iyun)

MATERIALLARI

**“CREATING THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASE OF
PEDAGOGICAL EDUCATION, INNOVATIVE IDEAS AND
TECHNOLOGIES AND THEIR IMPLEMENTATION INTO PRACTICE”**

International scientific and practical online conference

(June 15, 2023 y)

MATERIALS

**«СОЗДАНИЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ БАЗЫ
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ, ИННОВАЦИОННЫХ ИДЕЙ И
ТЕХНОЛОГИЙ И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В ПРАКТИКУ»**

Международная научно-практическая онлайн-конференция

(июня 15, 2023 г)

МАТЕРИАЛЫ

JIZZAX – 2023

Демак, бу қадимги мудофаа деворлари харобалари кесиб ўтган жойларга қараб айтиш мумкинки, Қизилқир ва Хўжанорсон атрофида суғориладиган ерларнинг майдони III-IV асрларда милoddан аввалги I асрдагига нисбатан деярли 4-5 баровар қисқарган.

VIII-IX асрларда эса шимолга томон 3-4 баровар кенгайган. Зандани каналидан сув ичган туман X-XI асрларда айниқса обод бўлган ўрта аср муаллифлари самоний ва ёкутларнинг берган маълумотларига кўра, ўша даврларда Хитвар (Зандана) каналининг сувлари Хурмитан ёки Хурмайтан қишлоғига етиб борган.

В.А.Шишкин Хўжапорсон тепани Самоний ва Ёкутлар тилга олган Хурмитан қишлоғини харобалари деб ҳисоблайди¹⁰⁹.

Ҳақиқатдан ҳам, қадимда Зандана руднинг куйи оқимида жойлашган ўрта аср шаҳар харобаларидан энг каттаси Хўжапорсон ва ундан биров кичикроқ Хужакултепалардир.

Бу тепаларнинг ҳар иккаласи ҳам қўшалок тепадан иборат, тўғри бурчакли туртбурчак шаклидадир. Хужапорсон тепа 100x75x12 м ўлчамларда бўлса, Хўжакултепа 95x50x16 м га тенг. У ердан VI-VII асрларнинг сирланмаган сопол буюмлари, X-XI аср сирланган сопол идишлари, симоб кузачалари, шиша ва тош қозон бўлаклари, XV-XVI асрга оид қошинкор гишт бўлаклари ва бошқа моддий маданият қолдиқлари топилган.

Шундай қилиб, Бухоро воҳасининг қадимги суғорилган ерларида олиб борган археологик тадқиқотлардан маълум бўлишича, милoddан аввалги I аср ва милod бошларида Қизилқир ва Хўжапорсонтепа каби археологик ёдгорликлар комплекси жойлашган мавзелар тўла ўрганилган. 336 км.лик Кампир ДевоЛ Я.Ғуломов бошчилигидаги отряд аъзоси Х.Мухамедов томонидан тўлиқ ўрганилиб, В.А.Шишкин тадқиқотлари билан ҳамоханг ҳолда умумий бир фикрга келинади. Деворнинг икки даврга оид эканлиги, биринчиси қадим даврларга, иккинчиси унинг қайта тикланиш даври асрга оид эканлиги ўз исботини топади¹¹⁰.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH

*Umirova Nurjamal Jarkurganovna,
Yuqori Chirchiq tumani 12-sonli umumiy
o‘rta ta’lim maktab direktori*

Annotatsiya: Mamlakatimizning ta’lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar ilg‘or horijiy ta’lim tajribasini o‘rganish, tahlil etish hamda ta’lim muassasalari sharoitiga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik va didaktik bosqichida “bilimli” ta’lim yondashuvidan kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga o‘tish, bitiruvchilarga egallashi ko‘zda tutilayotgan kasbga doir shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Tayanch tushunchalar: kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, bo‘lajak pedagog, ta’lim va tarbiya, shaxsiy yetuklik, ideal pedagog, ideal pedagog mutaxassis, ideal pedagog xodim, murakkab, mashaqqatli.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashga intilib, keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish yo‘lidan bormoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o‘rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta’minlamoqda.

Turli sohalarda yo‘lga qo‘yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o‘z samarasini berayotgan bo‘lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a‘zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat‘iyat ko‘rsatishni talab etmoqda.

¹⁰⁹ В.А.Шишкин. Варахша. С. 22.

¹¹⁰ В.А.Шишкин. Варахша. 27 с.

Shu nuqtai nazardan qaralganda ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Bunday jarayonni amalga oshirish uchun o'qituvchi maxoratli bo'lishi lozim. O'qituvchining mahorati - har qanday sharoitda ham tarbiyalangan, rivojlangan va bilimdonlikni yetarli darajada tarbiyalovchi o'quv jarayonini tashkil qila olishdan iborat. Haqiqiy bo'lajak pedagog istalgan savolga to'g'ri javob topa biladi, o'quvchiga o'ziga xos yo'l bilan yaqinlasha oladi, rag'batlantiruvchi fikrlar bilan uni o'ziga tortadi. Bunday bo'lajak pedagog o'z predmetini chuqur o'zlashtiradi, o'qitilayotgan fanning rivojlanishi, kelajagini oldindan ko'ra biladi. Shu bilan bir qatorda, zamonaviy adabiyotni, o'quvchilar yaxshi ko'rib mutaola qiladigan ommabop jurnallarni o'qib boradi. Madaniyat va yangiliklarni, xalqaro hodisalarni tahlil qila oladi. Yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo bo'lajak pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim. O'qituvchilar faoliyatida kasbiy potentsiallik tushunchasi xam mavjud bo'lib, pedagogning kasbiy potentsialini - ideal pedagog bilan ifodalash ma'lum darajada osonlik tug'diradi. Ular quyidagicha tasniflanadi:

ideal pedagog - professional pedagogning bir ko'rinishi bo'lib, u eng yuqori darajadagi shaxsiy funksiyalarga ega bo'lgan shaxs. Ideal pedagog bu solishtirish uchun tayyorgarlik bo'yicha eng yuqori etalon. Pedagogik potentsialning ideal pedagog tushunchasi bo'yicha strukturasi, pedagogik sifat ketma-ketligi juda ko'p bo'lib, ularning ba'zilar zamon talabiga muvofiq ravishda o'zgarib turadi;

ideal pedagog mutaxassis - pedagogik nazariyani to'liq o'zlashtirish, pedagogik mahoratga ega bo'lish, psixologiyani bilish, o'qitish va tarbiyalash texnologiyasiga ega bo'lish, nutqning aniq va ishonchligi, talabchan bo'lish, o'zini boshqara olishi, to'g'ri so'z, tashkilotchi, dilkash hamda o'zgalarni eshita olishni bilish;

ideal pedagog xodim- maqsadni qo'ya olishi va unga erishishni bilish, vaqtni taqsimlashni bilish, o'z malakasini rejali va tizimini oshirish, kollektiv bilan ishlashni bilish, matonat va qat'iyat, tartiblilik, javobgarlik;

ideal pedagog inson - yuqori darajadagi axloqiy sifatlar, jamoat ishlarida faol qatnashish, faol xayotiy o'rinni egallash, hammaga o'rnaklik, davlat qonunlariga hurmat, sog'lom turmush tarzi, muloqotga moyillik, ochiqlik, o'z harakatlarga tanqidiy qarash. Bularning barchasi pedagogika kompetentlikda muxim ahamiyat kasb etadigan jarayonlardir.

Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimini yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishish davr talabidir. Ta'lim muassasasi bitiruvchisi o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashda asosan pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi: - murakkab jarayonlarda; - noaniq vazifalarni bajarishda; - bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda; - kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda. Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: - o'z bilimlarini izchil boyitib boradi; - yangi axborotlarni o'zlashtiradi; - davr talablarini chuqur

anglaydi; - yangi bilimlarni izlab topadi; - ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi. Ta'lim oluvchilarning bilim samaradorligini oshirishda pedagog kasbiy faoliyatning qadriyatga yo'naltirilgan asosi bu - "Kompetensiya" va "Kompetentlik". Uning tuzilishi va mazmuni qo'yidagicha:

Kompetensiya - sub'ektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil etishga tayyorligi.

Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga ega ekanligini anglatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning o'quvchi shaxsining rivojlanish me'yorlarini hisobga olgan holda, o'quv-tarbiya jarayoniga mos metodlarni tanlay bilishi, o'z mehnatining asosiy qadriyati o'quvchi ekanligiga e'tibor qaratishi, o'z-o'zini anglashi va o'zini o'zgartirish ehtiyojiga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Psixologik-pedagogik kompetentlikning asosini pedagogning turli yosh guruhlari bosqichida o'quvchi shaxsining rivojlanish qonuniyatlariga rioya etgan holda ta'sir etuvchi faol bilimi va harakati tashkil etadi.

Hozirgi ta'lim sohasida katta o'zgarishlar bo'layotgan bir davrda ta'lim oluvchilar psixologiyasini teran o'rganish bilan birga, pedagog o'z faoliyatiga psixologik yondoshuvi va bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda motivatsion ta'sir ko'rsatishi lozim. Shaxsga ta'lim va tarbiya berishda nafaqat ta'lim oluvchiga ta'limning yo'naltirilishi, balki o'qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi muhimdir. Bunday hollarda bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi, Xalq so'zi gazetasi, 2016 yil 8 dekabr.
2. Quronboev Q.Q. Talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (yoshlar tashkilotlari misolida): Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2000. – 155 b.
3. Adolf V.A. Teoriticheskie osnovy formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya: avtoref. Diss. D-ra ped.nauk. – M.: -1998 y.
4. Pedagogik atamalar lug'ati. Tuzuvchi mualliflar: R.X.Djuraev, O'.Q.Tolipov, R.G'.Safarova, X.O.To'raqulov, M.E.Inoyatova, M.S.Divanova – T.: FA "Fan"-2008 y.
5. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – T.: -2015 y.

натижалари	
<i>Жамол Юлдашев</i>	576
Во‘lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish	
<i>Umirova Nurjamal Jarkurganovna</i>	585